

SENATOR TERMIZ SHAHRIDA TARG'IBOT ISHLARINI OLIB BORMOQDA



SENATOR TERMIZ SHAHRIDA TARG'IBOT ISHLARINI OLIB BORMOQDA

Bugun, 17 may kuni Termiz shahar hokimligining majlislar zalida bo'lib o'tgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Odiljon Iminov Oliy Majlis Senatining 2022 yil 28-29 aprely kunlari 25-yalpi majlisida ko'rib chiqilgan masalalar, qabul qilingan qarorlar hamda ma'qullangan Qonunlarning hamda "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati haqida ma'lumotlar berib, targ'ibot ishlarini olib bordi.

Ushbu yig'ilishda shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev, sektor rahbarlari, xalq deputatlari viloyat kengashi kotibiyati mudiri, shahar hokimining o'rinbosarlari, xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari va ommaviy

axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi.

Ishtirokchilar Oliy Majlis Senatining yigirma beshinchi yalpi majlisida ko'rilgan boshqa masalalar haqida ham atroflicha ma'lumotga ega bo'ldilar.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

